

BOSHLANG`ICH SINIF DARSLARINI INTERAKTIV METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

Raximbayeva Raxila Oybek qizi

Xorazm viloyati Gurlan tumani

17-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Davletova Javida Allamberganovna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

17-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Kamalova Shaxlo Zokir qizi

Qoraqalpog`iston Respublikasi To`rtko`l tumani

63-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirish, hamisha dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang`ich sinf darslarida interaktiv metodlarni qo`llagan holda o`quvchilarning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy usul va metodlari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** ijodkorlik, ijodiy fikr, faollik, ta`lim, yaratuvchanlik.

METHODOLOGY OF ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL LESSONS ON THE BASIS OF INTERACTIVE METHODS

Rakhimbayeva Rakhila Oybek qizi

Gurlan district of Khorezm region

Primary school teacher of 17th school

Davletova Javida Allamberganovna

Gurlan district of Khorezm region

Primary school teacher of 17th school

Kamalova Shahlo Zokir qizi

Turtkul district of the Republic of Karakalpakstan

Primary school teacher of 63rd school

Annotation. Developing the skills of primary school students is always a topical issue. This article discusses modern methods and techniques for developing students' positive abilities using interactive methods in primary school.

Keywords: creativity, creative thinking, activism, education, creativity.

O`quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo`lib yetishishida biz- pedagoglarning o`rni beqiyos. Bugungi kun o`qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan har bir dars uchun o`zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Chunki zamon ilgari lab borayotgan bugungi davr bolasini qirq besh daqiqalik dars mobaynida diqqatini faollashtirib bilim berish- murakkab jarayon. Shuning uchun bolalarga turli ko`rgazmalar va o`yinlar orqali ta`lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi darsda samaradorlikka erishiladi. Mavzuni idrok etish osonlashadi va hech kim zerikmaydi. Fikrlay olish bolalar o`yinlarida ham o`qishda, mehnatda ham hattoki tabiat qo`yniga sayohat qilganlarida ham rivojlanadi.

Ammo o'quvchini faollashtirishda interaktiv metodlar hamda ko'rgazmali qurollarni qo'llash yanada samara beradi. Umuman o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash qolibiyati, sinfdoshlari bilan do'stona munosabatlarini shakllantirishda, ma'naviy ongini o'stirishda interaktiv metodlar va turli ko'rgazmali qurollarning ahamiyatini alohida takidlash zarur. O'quvchi turli ko'rgazmalar bilan ishlayotganda mustaqil fikrini bildiradi, ijod qiladi, dunyoqarashi kengayadi, eng asosiysi, hayotga, atrofida bo'layotgan hodisalarga qiziqishi ortadi. Har bir interaktiv metodlar bolalarning bilish faoliyatini hisobga olgan holda tashkil etish, o'quvchilarning o'yin qoidasini to'la tushungan holda ishtirok etishini ta'minlash, interaktiv metodlar mazmunini bolalarning qobiliyatini hisobga olgan holda tuzish, o'yin vaqtini unumli tashkil etish lozim. Interaktiv metodlar sinfdagi eng "jiddiy" bola bilan ham til topishish imkonini beradi. Darsni boshlashdan avval interaktiv metodlarni qo'llash bilim olish jarayoninig qiziqarli va maroqli tashkil etilishini taminlaydi. Bolalarni ruhan tetiklashtirib, kayfiyatini ko'taradi, shuningdek, darslikdagi mavzularni o'zlashtirishdagi mavzularni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Masalan, o'yinning aqliy tarbiyaga ta'sir etish jarayonini oladigan bo'lsak, o'yinlar mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy hayot hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lish, tabiatga, bolani qurshab turgan atrof muhitga, Vatanga muhabbat tuyg'ularining shakllanishiga hamda kasbga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlar bolalar nuqtini o'stirib, ularning so'z boyligini oshiradi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, gaplarni bir-biri bilan bog'lashga, o'z fikrini to'liq bayon etishga o'rgatadi. Shuning uchun ham, o'qituvchi o'yin jarayonida shu jihatlarga alohida e'ribor berishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy talablaridan biri har bir dars jarayonida turli mazmunli, dars mohiyatini ochib beruvchi, o'quvchilarni zerikarli tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantira oladigan interaktiv metodlardan foydalanib, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, fanlarga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishdan iborat. Hozirgi kunda har bir fan ana shunday zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazilib kelinmoqda

Quyida bir qancha interaktiv metodlardan misollar keltirib o'tamiz

"Rasmlı rebus" o'yini

Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatiladi. Berilgan rasmlar nomining bosh harflaridan hayvon yoki qushlar nomi kelib chiqishi kerak. Masalan, qaldirg'och + ukki + yo'lbars + olmaxon + nok = QUYON.



"Enerjayer" o'yini

Bu o'yinda "Ob-havo", "Qish" yil fasllari kabi mavzular o'tilganda foydalanish mumkin. O'quvchilar doira shaklida turib oladilar, o'quvchilar o'rtada qo'l harakati orqali tabiat hodisalarini avval sekin so'ng tezlashgan holatda ko'rsatadi, o'quvchilar soat mili bo'ylab ushbu harakatlarni so'zsiz davom ettiradilar.

Shamol – qo'llar bir-biriga sekin ishqalanadi, so'ng bu harakat tezlashadi.

Yomg'ir – qo'llar qarsillatiladi

Jala – chirmashtirilib yelkalarga uruladi

Do'l – tizzalarga chapatilab uriladi.

Harakat asta sekin teskariga qaytariladi.

"U kim? Bu nima?" o'yini

O'yinni o'tkazishdan maqsad: O'quvchilarning mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllantirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish.

O'yinni o'tkazish jarayoni: Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar ta'rif asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Masalan: U shar shaklida. Uni mashhur sportchilar ham, biz bolalar ham, kattalar ham sevib o'ynaymiz. Shuningdek, u yosh bolalarning sevimli o'yinchog'idir. (javob:koptok). O'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki tovushlar bilan tanishtirish, yangi mavzuni bayon qilish jarayonida foydalanish mumkin. O'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchikovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradi.

Matematika fani uchun: 1-sinf "Matematika" darsligida "Narsalarning o'lchamlari: uzun-qisqa, keng-tor, baland-past" mavzusi bo'yicha quyidagicha: Uning bo'yi eshikdan past, partadan baland, kengligi doskadan tor. (javob: shkaf)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi" Toshkent 2010
2. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali 2012-yil 10-son, 2014-yil 5-son
3. Darslik va o'quv qo'llanmalar

Internet saytlari

1. w.w.w.ziyonet.uz
2. w.w.w.tdpu.uz

